



SCIENCE TIME

«KO‘HNA DUNYO» ROMANIDAGI BADIY PSIXOLOGIZMNI YORITISHDA XALQ RIVOYATLARINING O‘RNI

Jumanazarova Rayhona Jaloliddinovna
Qarshi davlat universiteti Adabiyotshunoslik kafedrasи o‘qituvchisi.
E-mail: rayxonjumanazarova3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, uning yozma adabiyot bilan o‘zaro munosabati, xususan, xalq rivoyatlarining asar syujetini boyitishidagi o‘rni Odil Yoqubovning «Ko‘hna dunyo» asari misolida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: folklorshunoslik, adabiyot, rivoyat, sujet, tugun, kulminatsiya, voqealar rivoji, yechim, xotira, ong oqimi, retrospeksiya.

Аннотация: В данной статье анализируется узбекское народное устное творчество, его взаимодействие с письменной литературой, в частности, роль народных сказаний в обогащении сюжета произведения на примере анализа романа «Старый мир» Одила Якубова.

Ключевые слова: фольклористика, литература, повествование, сюжет, узел, кульминация, развитие событий, развязка, память, поток сознания, ретроспекция.

Annotation: In this article, on the example of the work of Odil Yakubov «The Old World», the Uzbek folk oral art, its interaction with written literature, in particular, the role of folk narratives in enriching the plot of the work, is analyzed.

Key words: folklore, literature, narration, plot, knot, climax, development of events, denouement, memory, stream of consciousness, flashback.

KIRISH.

Badiiy adabiyot paydo bo‘libdiki, xalq og‘zaki ijodi bilan oziqlanadi, uning go‘zal namunalari qayta ishlanib, sayqallashadi. Chunki yozuvchi kitobxonni o‘z ijodiga qiziqtirishi uchun unga tanish olam manzaralarini ham sigdirishi lozim. Ana shunda kitobxon yozuvchining aytganlariga ishonadi, asar syujetini maroq bilan o‘qiydi. Qaysiki ijodkor folklor an’analari ichida yashagan, uni o‘ziga singdirgan bo‘lsa, o‘sha ijodkorning asari tili jihatdan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi. Zero, milliy ong va tafakkurning shakllanishida badiiy asarning o‘rni beqiyos.[3; 11-bet].

METODLAR.

O‘zbek adabiyotida mistifikatsiya o‘zining ham ijobiy, ham salbiy funksiyasida namoyon bo‘ladi. Odil Yoqubovning «Ko‘hna dunyo» romanida esa



SCIENCE TIME

asar g‘oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiluvchi muhim badiiy vosita, epik tasvirning samarali ifoda usuli funksiyasini bajargan.

Ushbu romanda yozuvchi ushbu maqsad yo‘lida, nafaqat mistifikatsiya usulidan, balki xalq og‘zaki ijodi janrlaridan ham unumli foydalangan. Muallif romanning bir necha o‘rinlarida rivoyatlardan, hikoyatlardan, mif(asotir)lardan, xalq afsonalaridan foydalangan. Bu jarayon o‘zbek adabiyotigagina xos bo‘lib qolmay, balki jahon adabiyotida ham ushbu hodisani guvohi bo‘lishimiz mumkin. «Ko‘hna dunyo» romani poetikasida ham asotirlar, afsona va rivoyatlar katta o‘rin tutadi. Yozuvchi ularni turli xil manbalardan olib, asar syujetiga mohirona singdirib yuborgan. Maqolada romanda qo‘llanilgan mif, afsona va rivoyatlar tahlilida struktural metoddan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI.

Romanda qo‘llanilgan mif, afsona va rivoyatlarni mavzu nuqtayi nazaridan hamda g‘oyaviy mazmuniga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ijtimoiy tuzum vaadolatli podsho haqida. Ushbu tipga kiruvchi rivoyat asar boblarida mavjud bo‘lib, romanning birinchi bobida huddi shu tipdag‘i Bobo Xurmo hikoyati berilgan:

«Shundaykim, qadim zamonlarda ikki xesh, ikki birodar safarga chiqmish. Yo‘l yursa ham mo‘l yurib, sahroda o‘sgan bir sada tagiga borib qo‘nmish. Topgan-tutganlarini baham ko‘rib, suhbat qurmish. Shunda bir do‘st ikkinchisidan: agar senga saodat yor bo‘lib, poshsho bo‘lsang, nima qilar eding, deb so‘ramish.

- Agarchand, - demish birinchi sayyoh, - saodat yor bo‘lib, poshsho bo‘lsam, yurtimda insof-uadolat o‘rnatar edim. Odamlar nimayiki orzu qilsa, hammasini ro‘yobga chiqarar edim!

- Kamina poshsho bo‘lsam, -demish ikkinchi sayyoh. – Bani odam atalmish bu nodonlarni tavbasiga tayantirar edim. Qashlashga tirnoq ham qoldirmay, kafangado qillardim bularni!

- Sabab?

- Sababi – na yaxshilikni biladi bu gumrohlar, na yomonlikni!



SCIENCE TIME

Ertasiga ikki sayyoh yo'llarida davom etmish. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, bir shahri azimga yetib bormish. Qarasalar, ark oldidagi maydonda odam tirband, hammaning qo'lida bir parcha go'sht, osmondag'i qushga tikilar emish. Ma'lum bo'lishicha, bir kun avval shahar hokimi olamdan o'tgan, hokim befarzand bo'lib, taxt vorisi yo'q emish. Shu boisdan, shahar donishlari yig'ilib, poshshoning qari burgutini uchirmoqqa ahd qilmish, toki burgut kimning boshiga qo'nsa, o'sha odam poshsho bo'lsin! Burgut esa falakning gardishi bilan bemehr sayyohning boshiga kelib qo'nmish.

Shahar donishlari sayyohning musofir ekanini eshitib, burgutni qayta uchirmish. Burgut maydon uzra uchib yurib, yana o'sha sayyohning boshiga qo'nmish. Shu yo'sin uch marotaba uchirilib, uch marotaba sayyohning boshiga qo'ngandan so'ng shahar ahli uni taxtga o'tqazmish.

Sayyoh esa taxtga o'lirgan hamon, o'z aytganini qilmish: mamlakat ahlini zir titratmish, behisob boj-u xiroj solib, hammani kafangado qilmish. Shunda odamlar poshsho bo'lgan sayyohning do'stini qidirib topmish, poshsho ustidan arz qilib, undan najot so'ramish. Faqir sayyoh poshsho bo'lgan do'stining huzuriga bormish. Poshsho uni shod-xurramlik bilan kutib olmish, ammo so'zini eshitib: "Sen bu ishga aralashma, - deb tanbeh bermish. – Agar men bu odamlarga zulm qilgan bo'lsam, gumrohligi va nodonligi uchun shunday qildim. Agar bular nodon bo'lmasa, Xudoning aqlsiz bir maxluqiga inonib, kaminani taxtga ko'tarishmas edi! Beaql maxluqqa inonib meni poshsho qilishgan ekan, rahm-shafqat ne darkor bularga? Dono poshsho donolarga loyiqdur! Nodonlarga nodon poshsho yarashur!"

Yozuvchining ushbu rivoyatni keltirishidan bosh maqsadi, xalqning azaliy orzusi bo'lgan odil shoh g'oyasini ilgari surishdir. Ushbu rivoyatdagi yaxshi, rahmdil inson asrlar davomida adolat istab, kurashayotgan xalq timsolidir. Zolim shohga aylangan kishi esa xalqning dardini eshitmaydigan, tushunmaydigan Mahmud G'aznaviyga qiyos qilinadi. Ya'ni Mahmud G'aznaviy ham umri mobaynida oddiy, beozor xalqqa zulm qilib kelgan, nafaqat o'z xalqiga, balki



SCIENCE TIME

boshqa millat xalqlariga ham o‘ta zulm ila qirib tashlagan. Hayotining so‘nggida og‘ir xastalikka chalinib, yotib qolganida, balki o‘lim ko‘ziga ko‘ringanidan qilgan ishlarini sarhisob qilib, o‘zi tomonidan jabr ko‘rganlardan uzr so‘rab, xalqqa ehson berib, gunohlarini yuvmoqchi bo‘ladi. Soxta Ibn Sino kelib, dardi sal yengillashganda yana osha zolim poshshoga aylanadi. Bobo Xurmo ushbu rivoyatning oddiygina hikoyachisi bo‘lib, hikoyatining orqasidan qattiq jazoga tortiladi, ya’ni o‘lim jazosiga mahkum etiladi. Bobo Xurmo hayotda haqiqat uchun kurashayotgan xalqning bir vakili xolos. O‘sha davrda Bobo Xurmodek jabrdiydalarning son-sanog‘i yo‘q bo‘lib, yozuvchi zamon muhitini ochish uchun ulardan Bobo Xurmoni tanlaydi. Xalq obrazini yaratish va hayot haqiqatini ko‘rsatishda yozuvchi shu kabi rivoyatlardan unumli foydalangan.

2. Aql va zakovat haqida. Yozuvchi asarda yana shunday rivoyatlardan foydalangankim, u asli haqiqiy emas, balki personajning ma’lum maqsad yo‘lida to‘qib chiqargan rivoyatidir. Ya’ni ko‘r darveshning soxta Ibn Sinoning aql-zakovatli insonligiga xalqni ishontirish, atrofiga odamlarni yig‘ish uchun to‘qib chiqargan to‘qima rivoyatidir. Ushbu rivoyatda asosiy detal bu-uzuk bo‘lib, emishki bu ulug‘lanayotgan “Ibn Sino” aql-zakovatda tengsiz bo‘lib, hatto chaqaloqligidan ota-onasini hayratlantirgan emish, bolaligidan uni judayam yaxshi ko‘radigan bir enagasi bo‘lib, u bolani juda yaxshi parvarishlaganidan bola ham unga mehr qo‘yibdi. Bir kuni bolachaning onasining uzugi qopdagagi tariq ichiga behosdan tushib ketibdi, uni enaga ko‘rmay qolibdi. Uy bekasi uzukni yo‘qolishida enaganing qo‘li bor deb o‘ylab, uni uydan haydab yuboribdi. Bolacha bu holatdan qattiq istirob chekibdi va ota-onasiga timmay yig‘lab, tariq to‘ldirilgan qopni ko‘rsatibdi. Otasi go‘dakning bu holatidan hayron bo‘lib, tariqni yerga to‘kibdi, qarashsaki uzuk qopning ichida emish. Bolaning ota-onasi cho‘ri qizdan uzr so‘rashibdi, farzandlarining zakiylidan esa juda xursand bo‘lishibdi. Demak, yozuvchi asarda shunday rivoyatni Ibn Shahvoniyning yolg‘onchi inson ekanligini, u haqida aytilgan rivoyatlar ham hatto yolg‘onga to‘laligini yoritib bergen.



SCIENCE TIME

3. Hayot va o‘lim haqida. Ibn Shahvoniyning yolg‘on rivoyatlari yana davom etadi. Xuddi shu mavzuni yorituvchi soxta tabib haqidagi, uning bir davosiz dardga yo‘liqqan yigitni barmoqlarini ushlab, so‘roq-savol qilib, hayotga qaytarganini ifodalovchi rivoyatdir.

Yana shuningdek, ushbu romanda **sarguzasht xarakteridagi, xudolar to‘g‘risidagi rivoyatlar** ham mavjud. Asarda shoir Unsuriy tomonidan aytilgan “Ne’mati ilohiy” haqidagi rivoyat yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek sarguzasht xarakterdagi rivoyatlardan sanaladi. Ushbu tipdagi miflar g‘arb adabiyotida, xususan, Artur yoki Breton turkumiga mansub bo‘lgan XII asr fransuz romani «Tristan va Izolda»dagi «sevgi sharobi» afsonasiga mohiyatan yaqin rivoyat hisoblanadi.

Xasta sulton cho‘kayotgan odam cho‘pga tirmashadi degan maqolga amal qilgan holda, Shoир Unsuriy aytgan o‘sha «ne’mati ilohiy» borligiga, bu afsonaning haqiqat ekanligiga qattiq ishonadiki. Beruniy sultonni aldashni istamay, rostini so‘zlagani uchun, bu oddiy cho‘pchak degani uchun ham uni jazolab, zindonga tashlattiradi. Shoир Unsuriy esa sultonning ko‘ziga yaxshi ko‘rinish uchun, og‘zini to‘ldirib, oltin-u javohirlarni solish, sulton mukofotiga ega bo‘lish uchun qayta-qayta yolg‘on gapiradi. Bu cho‘pchakning asarda qo‘llanilishi ikki personajning shoир Unsuriy hamda Beruniyning ruhiyatiga xos holatlarni ochishga xizmat qilgan.

Asardagi xudolar to‘g‘risidagi rivoyat bu - Beruniyning Hindistondagi vedachi kohinlardan eshitgan rivoyatidir: «Go‘yo olam yaralishidan avval na quyosh bo‘lgan, na oy va na yulduz! Birinchi bo‘lib, zulmat, zulmatdan suv, suvdan esa olov bunyod bo‘lgan. Olovdan tuxum barpo bo‘lib, u ummonlar qa’rida suzib yurgan. So‘ng, tuxum ichidagi oltin homiladan hindlar xudosi Borahim tug‘ilgan. Borahim tuxumni yorib chiqqan-u uning bir pallasidan osmon, bir pallasidan yer hosil bo‘lgan, shuning uchun ham hindlar boshda tuxum shaklida yaralgan bu olamni Borahim tuxumi deb ataydilar!»



SCIENCE TIME

Asarda hayot va o‘lim mavzusidagi Ibn Sino tomonidan aytilgan rivoyat mavjud, lekin bu rivoyat yozuvchi tomonidan hayotda sodir bo‘lgan voqeadek asar syujetiga singitiladi. Ushbu rivoyatni Ibn Sino o‘z xayollari bilan quyidagicha tahlil qiladi: «Ajal! Hayot va O‘lim! Mana, salkam qirq yildirki, bu yechilmas tugun Ibn Sinoning hayolini betinim band etib keladi, bu chigal sir-asroring tagiga yetish orzusida u qay ko‘chalarga kirib chiqmadi, ne-ne dorularni yaratmad! Ajab hol: yoshlikda, Buxoro hokimi Nuh ibn Mansurni davolab, uning kutubxonasidagi Abu Bakr ar-Roziy, Buqrot hakim va Jolinus kitoblarini «chaynamay yutib» yurgan chog‘larida, kelgusida uning uchun yechilmaydigan jumboq bo‘lmasligiga, hatto ajalga ham davo topishiga amin edi. Endi esa minglab giyohlar sirini anglab, serjumboq tabiatning ko‘p hodisalariga tushunganida esa, yoshlik orzularining puchligiga inondi. Hayhot, tabiat sirlarini o‘rgangan sayin uning tagi chuqurlashib bormoqda, bir jumboqni yechsa, ikkinchisi, ikkinchisini yechsa, uchinchisi ro‘baro‘ bo‘ladi. Mana, soqoliga oq oralab, ko‘zidan nuri, belidan quvvati keta boshladi hamki, ilm bobidagi bu quvdi-qochdining intihosi ko‘rinmaydi». (15-bob, 206-207-b)

Asarda Ibn Sino tomonidan Beruniyga qarata Bani odam haqidagi rivoyatni so‘zlab beradi: «Bir donishmand bani basharning nopok istaklari va tuban ehtiroslarini bir uygaga qamab qo‘yilgan uch maxluq – odam, to‘ng‘iz va arslonga o‘xshatgan ekan. Bani odam deganda u aql-idrokni nazarda tutibdi, to‘ng‘iz deganda insonning chirkin xohishlarini, arslon deganda esa qahr-u g‘azabini nazarda tutibdi. Bu uch maxluqning qaysi biri zo‘r chiqsa, qamalgan uyda o‘sha ustunlik qilar emish. Bu qissadan hissa shulki, to‘ng‘iz bilan sher, ya’niki tuban ehtiroslar qanchalik zo‘r bo‘lmasin, bani odam, ya’niki aql-idrok yengusidir!»

Ushbu rivoyat asardagi voqealarning kelib chiqish manbaidir. Asardagi voqealarning mohiyati shu rivoyat orqali ochib beriladi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Odil Yoqubov «Ko‘hna dunyo» romanida xalq og‘zaki ijodiga murojaat etib, ana shunday iibratli rivoyat va hikoyatlaridan asar syujetini yoritib, uning mazmun-mohiyatini ochish uchun juda o‘rinli foydalangan.



SCIENCE TIME

O.Yoqubovning romançılığının zamanöviy o‘zbek narsining badiiy tasvir imkoniyatini, ko‘rku salobatini ko‘rsatishi bilan xarakterlidir. Muallif bu asarida inson, uning hayotdagı o‘rni, o‘z taqdirini belgilashdagi ishtiroki, adolat, haqiqat va ularning tantanasi to‘g‘risidagi qarashlarini rivoyatlar yordamida mohirona turli tabiatli shaxslar qismati misolida ifoda etadi. Yozuvchi inson hayoti ma’nisini anglamoqchi bo‘lgan faylasuf sifatida ko‘rinadi.

АДАБИЁТЛАР:

1. АЛ Жузжоний. Абу Алига мойил бўлгим келарди// Гулистон. Журн., 1980.
2. Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. Roman. – Toshkent, 2015.
3. Каримов Н. «Бой ила хизматчи» драмасининг ижодий тақдири//Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий ижоди проблемалари. –Тошкент:. 1985.
4. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent:. 2017.
5. Гинзбург Л. О психологической прозе. -Л., 1971.
6. Исаева Ш.Б. Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуллари. -Тошкент:. 2001.
7. Завадовский Ю.Н. Абу Али ибн Сино. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1958.